



Entoni Blerning siyosiy faoliyati va mafkuraviy yondashuvi

Mamatazimov Qudratillo

Andijon davlat universiteti Magistratura

bo'limi Tarix mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk Britaniya Leyboristlar partiyasining yetakchilaridan biri hisoblanmish, Entoni Bler (1953-yil 6-mayda, Edinburg, Shotlandiyada tug'ilgan) haqida ya'ni uning 1997—2007-yillarda Buyuk Britaniyaning bosh vaziri lavozimida faoliyat yuritgani va U Buyuk Britaniya tarixida 1812-yildan beri eng yosh bosh vazir bo'lish bilan birga, leyboristlar orasida eng uzoq vaqt hukumat boshqaruvini olib borgan siyosatchi sifatida ham tarixda qolganligi. Uning boshqaruv muddati ketma-ket 10 yilni tashkil qilgan bo'lib, bu so'nggi 150 yillik davr ichida Margaret Tetcherdan keyingi eng uzun bosh vazirlik davri sifatida qayd etilganligi haqida, uning siyosiy faoliyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Entoni Bler, bosh vazir, siyosat, huquqshunos, Buyuk Britaniya

Entoni Bler 1953-yilning 6-may sanasida Shotlandiyada tavallud topgan. Buyuk Britaniyaning eng ko'zga ko'ringan bosh vazirlaridan biridir. Huquqshunos oilasida tug'ilgan Bler Edinburgdagi Fettes kollejida tahsil olgan. Bu maktab ko'pincha —Shotlandiyaning Itonil deb atalgan. Keyinchalik u Oksford universitetining Sent-Jon kollejida o'qib, huquqshunoslikni diniy qarashlar va ommabop musiqa bilan uyg'unlashtirib o'rgangan. Biroq, siyosatga bo'lgan qiziqishi unchalik kuchli bo'lmagan, to uning



kelajakdagi rafiqasi Sheri But bilan tanishguniga qadar. Bler 1975-yilda Oksfordni tamomlagan va oradan bir yil oʻtib, advokatlik litsenziyasini olgan. Britaniyada Mehnat va tijorat huquqi sohasida ixtisoslashgan paytlarida u Leyboristlar partiyasida faol ishtirok eta boshlagan va 1983-yilda parlament aʼziligiga saylangan. U Angliyaning shimoli-sharqidagi, sobiq konchilar yashaydigan Sedgefild okrugidan nomzod boʻlib chiqadi, bu hudud leyboristlar uchun xavfsiz saylov okrugi hisoblangan. Uning siyosiy faoliyatga kirib kelishi Konservativ partiyaning uzoq davom etgan hukmronlik davriga (1979-yildan boshlab) va Leyboristlar partiyasining ketma-ket toʻrtta umumiy saylovda magʻlub boʻlishiga (1979—1992-yillar) toʻgʻri kelgan. Blerning siyosiy sahnaga kirib kelishi Buyuk Britaniyaning oʻzgaruvchan siyosiy muhitida roʻy bergan boʻlib, u mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy burilish nuqtalariga mos ravishda shakllangan. 1979-yilda Margaret Tetcher yetakchiligida Konservativ partiyaning gʻalabasi nafaqat hukumat almashinuvi, balki neoliberal iqtisodiy tamoyillarga asoslangan yangi siyosiy paradigmaga oʻtish jarayoni sifatida baholanadi. Aynan shu davrda Leyboristlar partiyasi ichida mafkuraviy inqiroz chuqurlashdi va uning anʼanaviy sotsial-demokratik yondashuvlariga nisbatan tanqidiy munosabat kuchayib bordi.

Blerning 1983-yilda parlament aʼziligiga saylanishi ushbu oʻzgaruvchan siyosiy kontekstda sodir boʻldi. Sedgefild okrugi leyboristlar uchun anʼanaviy tayanch hudud hisoblangan boʻlsa-da, partiyaning umumiy darajadagi zaiflashuvi tufayli yangi avlod yetakchilarining partiya siyosatini qayta shakllantirish zarurati ortib borayotgan edi. Shu nuqtai nazardan, Blerning parlamentga kirib kelishi uning shaxsiy siyosiy ambitsiyalaridan tashqari, Leyboristlar partiyasining umumiy transformatsiya jarayonining bir qismi sifatida ham qaralishi mumkin.

Blerning advokatlik tajribasi va mehnat huquqi boʻyicha ixtisoslashuvi uning siyosiy faoliyatining dastlabki bosqichlarida katta ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, u 1980-yillarning oʻrtalarida ishchi sinf manfaatlarini himoya qilish bilan bogʻliq bahslarda faol ishtirok etdi.



Biroq, aynan shu davrda u an'anaviy sotsialistik diskursdan chekinib, bozor iqtisodiyoti va xususiy sektorning o'rnini borasida yanada pragmatik yondashuvni qo'llay boshladi. Bu yondashuv keyinchalik —Yangi Leyboristlar konsepsiyasining asosiy g'oyalaridan biriga aylandi.

Shuningdek, Bler siyosiy faoliyatining ilk bosqichlari Leyboristlar partiyasi ichidagi mafkuraviy ziddiyatlarning chuqurlashib borayotganiga guvoh bo'ldi. 1983-yilda partiyaning saylovdagi mag'lubiyati va Maykl Futning iste'fosi ortidan, partiya yetakchiligi moderatsiya jarayoniga yuz tutdi. Xususan, 1980-yillarning oxiriga kelib, partiyaning yangi rahbari Nil Kinnok radikal chap qanot mafkurasidan uzoqlashib, partiyaning yanada markaziy pozitsiyaga yo'naltirishga harakat qildi. Ushbu jarayonda Bler kabi yosh va pragmatik siyosatchilar yetakchilik rolini egallay boshladi.

Natijada, Blerning siyosiy faoliyatidagi dastlabki tajribasi uning keyinchalik ishlab chiqadigan —uchinchi yo'llik mafkurasining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Aynan shu yillarda u Konservativ partiyaning uzoq muddatli hukmronligi sharoitida Leyboristlar partiyasining hukumatga qaytishi uchun an'anaviy sotsialistik diskursning yetarli emasligini anglab yetdi. Shu boisdan, uning siyosiy strategiyasi partiyaning an'anaviy ishchi sinf elektoratidan tashqari, o'rta sinf va xususiy sektor manfaatdorlarini ham qamrab olishga yo'naltirildi.

Shunday qilib, Blerning siyosiy maydonga chiqishi va dastlabki yillarida shakllangan qarashlari uning keyinchalik Buyuk Britaniya siyosiy tizimini tubdan o'zgartiradigan yetakchiga aylanishida muhim omil bo'ldi. Uning ushbu bosqichdagi tajribasi Leyboristlar partiyasining mafkuraviy evrilishiga turtki bo'lib, keyinchalik uning hukumatga kelishining asosiy shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi.

1990-yillarning oxirida Jon Meyjor boshchiligidagi Konservativ partiyaning inqirozga uchrashi ortidan Entoni Bler Leyboristlar partiyasini ketma-ket uchta saylovda



g_alabaga olib keladi. Natijada, ushbu partiya 10 yildan ortiq hukumat tepasida bo_ldi va Bler 1997 yildan 2007 yilgacha Buyuk Britaniyaning Bosh vaziri sifatida faoliyat yuritgan. U 2007 yil yozida iste‘foga chiqadi, partiya yetakchiligini va bosh vazirlik lavozimini Moliya kansleri Gordon Braunga topshiradi. Braun 2010 yilgi saylovlargacha mamlakat boshqaruvini davom ettiradi. Bu o_zgarish Bler boshchiligidagi Leyboristlar partiyasining ichki tuzilmasi va mafkuraviy yo_nalishiga ham bevosita ta’sir ko_rsatdi. Uchinchi yo_l tamoyillariga asoslangan siyosiy strategiya natijasida partiya an’anaviy sotsial-demokratik kun tartibidan chekinib, bozor iqtisodiyotining ustuvorligini tan olgan holda, ijtimoiy adolat tamoyillarini yangicha formatda himoya qilishga harakat qildi. Bu esa jamiyatda iqtisodiy samaradorlik va davlatning tartibga solish funksiyalari o_rtasidagi muvozanatni saqlash borasida turli munozaralarni keltirib chiqardi.

Bler hukumati davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnership, PPP) modeli asosida ijtimoiy xizmatlarni modernizatsiya qilishga qaratilgan harakatlar o_z natijalarini berdi. Ushbu yondashuv qisqa muddatda iqtisodiy o_sishni ta’minlagan bo_lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda davlat xizmatlarining tijoratlashuviga sabab bo_lishi mumkinligi borasidagi xavotirlarni kuchaytirdi. Ayniqsa, sog_liqni saqlash va ta’lim tizimidagi islohotlar bozor mexanizmlariga haddan tashqari tayanish tufayli tengsizlik darajasining oshishiga olib kelishi mumkinligi haqida tanqidiy baholar shakllandi.

Bundan tashqari, Bler hukumati tashqi siyosatda AQSh bilan yaqin hamkorlik qilish tamoyiliga asoslandi. Ayniqsa, 2003-yilda Iroq urushida ishtirok etish qarori jamoatchilik orasida katta norozilikka sabab bo_ldi va bu jarayon Blerning siyosiy obro_siga sezilarli darajada ta’sir ko_rsatdi. Urushning oqibatlari, jumladan, uzoq davom etgan harbiy harakatlar, inson huquqlari bilan bog_liq bahslar va xalqaro maydondagi obro_ning pasayishi Leyboristlar partiyasining ichki siyosiy pozitsiyasini zaiflashtirdi.



Shu bilan birga, partiya ichidagi ichki raqobat va Blerning siyosiy merosiga nisbatan tanqidiy kayfiyatning ortishi uning isteʼfoga chiqishini tezlashtirdi. U 2007-yilda hukumat va partiya yetakchiligini Gordon Braunga topshirdi. Biroq, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz Braun hukumatining iqtisodiy siyosatiga jiddiy zarba berdi, natijada, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar chuqurlashdi va bu 2010-yilgi umumiy saylovlarda Leyboristlar partiyasining magʻlubiyatiga olib keldi.

Mazkur jarayonlar shuni koʻrsatadiki, Bler yetakchiligidagi uchinchi yoʻl modeli qisqa muddatda siyosiy muvaffaqiyat va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlagan boʻlsa-da, uzoq muddatli perspektivada u jamiyatdagi iqtisodiy tafovutlarni chuqurlashtirish va partiya ichki integratsiyasini zaiflashtirish kabi muammolarni yuzaga keltirdi. Shu boisdan, ushbu modelni baholashda uning iqtisodiy samaradorligi va siyosiy barqarorlikka qoʻshgan hissasi bilan bir qatorda, ijtimoiy tengsizlik va ichki partiyaviy kelishmovchiliklar kabi omillar ham eʼtiborga olinishi lozim.

Entoni Bler oʻzining siyosiy qarashlarida —uchinchi yoʻl deb ataluvchi mafkurani ilgari surgan. Bu yondashuv anʼanaviy kapitalizm (neoliberalizm) va sotsializm (sotsial-demokratiya) oʻrtasidagi murosali model sifatida shakllangan. Garchi ushbu yondashuv sotsial-demokratiya tamoyillarini qisman oʻz ichiga olsa ham, u iqtisodiy jihatdan neoliberalizmga yaqinroq turadi. Uchinchi yoʻl davlat tomonidan iqtisodga bevosita aralashuvga qarshi chiqadi, biroq hukumatni faqat cheklangan rolga ega boʻlgan zarur institut sifatida koʻradi. Entoni Bler tomonidan ilgari surilgan —uchinchi yoʻl mafkurasi siyosiy nazariyada anʼanaviy neoliberalizm va sotsial-demokratiya oʻrtasidagi murosaviy model sifatida shakllangan boʻlib, u davlat va bozor oʻrtasidagi oʻzaro munosabatni qayta talqin qilishga uringan. Ushbu yondashuv, bir tomondan, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyot kabi sotsial-demokratik tamoyillarni oʻz ichiga olsa-da, ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyotining ustuvorligini tan olish orqali iqtisodiy jihatdan neoliberalizmga yaqin turadi. Nazariy jihatdan, —uchinchi yoʻl davlatning iqtisodiy jarayonlarga bevosita



aralashuvini cheklash bilan birga, uning ijtimoiy barqarorlikni taʼminlovchi institut sifatidagi rolini saqlab qolishni nazarda tutadi. Ushbu model bozor mexanizmlarining samaradorligini tan olgan holda, davlat tomonidan belgilangan tartibga solish mexanizmlarini minimal darajaga tushirishga intiladi. Ayniqsa, taʼlim, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarida xususiy sektor bilan sheriklik tamoyillariga asoslangan islohotlar amalga oshirilgan.

Biroq, ushbu modelning samaradorligi va ijtimoiy adolat tamoyillarini qanchalik taʼminlashi borasida ilmiy diskurs doirasida turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, —uchinchi yoʻll iqtisodiy oʻsish va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashda muayyan natijalarga erishgan boʻlsa-da, u sotsial-demokratiyaning anʼanaviy taqsimot adolati tamoyillaridan chekinishi bilan tanqid qilinadi. Ayniqsa, 2008-yilgi moliyaviy inqirozdan soʻng, ushbu modelning ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishdagi zaifligi yanada yaqqol namoyon boʻldi.

Entoni Blerning yetakchilik yillarida Leyboristlar partiyasi anʼanaviy chap qanot yondashuvlaridan uzoqlashib, markaziy siyosatga yaqinlashishga harakat qilgan. —Bler partiyaning ishlab chiqarish, taqsimot va almashinuv vositalarining umumiy egalikda boʻlishi haqidagi IV moddasini oʻzgartirish boʻyicha kurash olib bordil, bu esa partiyaning davlat nazorati va jamoaviy mulkchilik tarafdori boʻlish haqidagi pozitsiyasidan voz kechishiga olib keladi. U savdo ittifoqlari bilan aloqalarni qisqartiradi va erkin bozor tamoyillarini qoʻllab-quvvatlaydi.

Bu islohotlar 1997-yilgi umumiy saylovlarda katta rol oʻynagan. —Leyboristlar partiyasi may oyida oʻtkazilgan saylovda Konservatorlarga qarshi yirik gʻalaba qozondi va partiya oʻz kampaniyasini —things can only get better (faqat yaxshilanishi mumkin) shiori ostida olib bordil. Ushbu gʻalaba bilan Leyboristlar parlamentda koʻpchilik oʻrinlarni qoʻlga kiritishgan va Bler bosh vazirlik lavozimini egallagan.



Blerning rahbarligi ostida Leyboristlar yangi siyosiy yoʻlni tan oladi. —Uning islohotlari koʻpincha partiya ichida qarshilikka uchragan boʻlsa-da, u oʻz siyosiy kursini —Yangi Leyboristlar (New Labour) sifatida taʼriflagan. Blerning "Yangi Leyboristlar" tamoyillari doirasida olib borgan siyosiy yoʻnalishi partiya mafkurasini anʼanaviy sotsial-demokratiyadan uzoqlashtirib, uni markazga yaqinroq pozitsiyaga yoʻnaltirishga qaratilgan edi. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi Leyboristlar partiyasini nafaqat anʼanaviy ishchi sinf elektorati, balki bozor iqtisodiyoti tamoyillarini qoʻllab-quvvatlovchi oʻrta sinf vakillari uchun ham jozibador qilishdan iborat boʻldi. Bunday yondashuv Blerning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatida muvozanatni saqlashga intilishida namoyon boʻldi: u bir tomondan xususiy sektorning iqtisodiy faolligini ragʻbatlantirgan boʻlsa, ikkinchi tomondan davlatning ijtimoiy adolat tamoyillarini kafolatlovchi funksiyalarini saqlab qolishga harakat qildi.

Biroq, Blerning islohotlari partiya ichida sezilarli darajada qarshilikka uchradi. Xususan, anʼanaviy sotsial-demokratik qanot vakillari uning siyosatini mehnatkashlar manfaatlaridan uzoqlashish va konservativ tamoyillarga yaqinlashish deb baholadilar. Ayniqsa, 1999-yilda milliy sogʻliqni saqlash tizimi (NHS) islohoti, davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli asosida taʼlim va infratuzilmani modernizatsiya qilish siyosati shiddatli munozaralarga sabab boʻldi. Ushbu tashabbuslar, bir tomondan, xizmatlar sifati va investitsiyalar hajmini oshirishga qaratilgan boʻlsa-da, boshqa tomondan, davlat xizmatlarining tijoratlashuviga olib kelishi mumkinligi borasida xavotir uygʻotdi.

Blerning tashqi siyosati ham partiya ichida bahs-munozaralarga sabab boʻldi. Ayniqsa, 2003-yilda AQSh yetakchiligida boshlangan Iroq urushida Buyuk Britaniyaning ishtirok etishi nafaqat partiya ichkarisida, balki keng jamoatchilik orasida ham norozilikni kuchaytirdi. Mazkur qaror xalqaro maydonda Britaniyaning strategik rolini oshirishga qaratilgan boʻlsa-da, uzoq muddatli nuqtai nazardan Leyboristlar partiyasining ijtimoiy tayanchiga zarar yetkazdi. 2005-yilgi umumiy saylovlarda partiya yana gʻalaba qozongan



bo_lsa-da, uning saylovchilar orasidagi qo_llab-quvvatlash darajasi sezilarli darajada pasaydi.

Natijada, Blerning siyosiy merosi murakkab va ziddiyatli bo_lib, u qisqa muddatli iqtisodiy barqarorlik va institutsional islohotlarni amalga oshirishga erishgan bo_lsa-da, uning uzoq muddatli ta'siri jamiyatda ijtimoiy tafovutlarning kuchayishi, partiya ichki bo_linishlarining ortishi va jamoatchilik ishonchining kamayishi bilan tavsiflanadi. Aynan shu jarayonlar uning 2007-yilda iste'foga chiqishini tezlashtirdi va partiya yetakchiligi Gordon Braunga o_tdi. Biroq, 2008-yilgi global moliyaviy inqirozning ta'siri Braun hukumati uchun og_ir sinov bo_ldi va bu 2010-yilgi umumiy saylovlarda Leyboristlar partiyasining mag_lubiyatiga sabab bo_ldi.

Shunday qilib, —Yangi Leyboristlarl konsepsiyasi Bler boshchiligidagi hukumat uchun siyosiy jihatdan pragmatik va muvaffaqiyatli strategiya bo_lib xizmat qilgan bo_lsa-da, uning partiya mafkurasiga ta'siri uzoq muddatli istiqbolda ziddiyatli bo_lib chiqdi. Uzoq yillik konservativ hukmronlikdan so_ng Leyboristlar partiyasining hokimiyatga qaytishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlagani uning yutug_i sifatida qaralsa, partiyaning o_z an'anaviy elektorati bilan bog_lanishining zaiflashishi va sotsial-demokratik tamoyillardan chekinishi uning asosiy zaif jihatlaridan biri bo_ldi.

Uchinchi yo_l g_oyasi sotsial-demokratiyaga ishora qilsa-da, aslida u kuchsiz va yumshatilgan neoliberallik shaklidan boshqa narsa emas. Ushbu mafkura imkoniyat, mas'uliyat va jamoatchilik tushunchalarini asosiy tamoyillar sifatida ilgari suradi. Sotsialistik davlat tushunchasi esa jamiyatning axloqiy asoslarini yemiruvchi tartibsiz tizim sifatida talqin qilinadi. Uchinchi yo_l tarafdorlari ijtimoiy tenglikni emas, balki imkoniyat tengligi va qobiliyatga asoslangan jamiyatni (meritokratiyani) asosiy qadriyat deb biladilar. —Birovga bevosita yordam berish emas, o_zini o_zi ta'minlashga imkon yaratishl degan tamoyil ushbu mafkuraning mohiyatini aks ettiradi. Davlat yordami shartli asosda



beriladi: inson faqat o_zini o_zi ta'minlash yo_lida harakat qilsa, ta'lim va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo_ladi. Asosiy qadriyatlar esa qat'iy boshqaruv tamoyillariga asoslangan bo_lib, bu jihatdan uchinchi yo_l neoliberallikdan deyarli farq qilmaydi.

Blair ushbu mafkuraviy muhit ichida Labour partiyasining bosh vaziri sifatida yetishib chiqdi. 1994-yilda u partiya yetakchisi etib saylanib, —Yangi Labour dasturi bilan g_alaba qozondi. —Yangi Labour dastlabki bosqichida mafkuraviy cheklovlardan voz kechib, dalillarga asoslangan siyosat yuritishni maqsad qilgan edi. Bu tamoyil Labour partiyasining asosiy g_oyalaridan butunlay voz kechish emas, balki uzoq kutilgan va zaruriy konstitutsiyaviy islohot sifatida talqin qilindi. 1994-yilgacha Labour partiyasi o_z mafkurasini sotsializm tamoyillariga asoslangan deb bilardi. Blairning islohoti mafkuraviy yo_nalishni o_zgartirishga qaratilgan bo_lib, u an'anaviy sotsializm o_rniga uchinchi yo_l siyosatini tanladi.

Morgan Blairni Labour partiyasining eng kuchli va samarali yetakchisi sifatida ta'riflaydi. Uning yoshligi va partiya bilan chuqur bog_lanmaganligi unga yangilik, dinamiklik va innovatsion siyosatchi sifatida obro_qozonishiga yordam berdi. Blair —Yangi Labour atamasini yaratib, o_zini —Eski Labourdan ajratishga intildi. Bu ajralish uch asosiy jihatda namoyon bo_ldi: partiya ichida markazlashgan nazoratni kuchaytirish orqali bo_linmalarni kamaytirish, an'anaviy Labour oddiylik tamoyilidan voz kechib, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullarini qo_llash hamda Eski Labour siyosatini butunlay rad etish. Blair savdo kasaba uyushmalariga bog_liqlikdan qutulib, ularni siyosiy jarayonda deyarli ta'sirsiz qildi. U Dovning Stritni axborot inqilobi mahsuliga aylantirdi va davlat mulki, markazlashgan rejalashtirish, progressiv soliqqa tortish, umumiy ijtimoiy himoya, to_liq bandlik hamda selektiv bo_lmagan ta'lim siyosatlaridan voz kechdi. Natijada, Labour partiyasi Blair yetakchiligi ostida biznes va past soliq stavkalari tarafdori sifatida qayta



shakllandi. Shunday qilib, Blair Labour partiyasini ochiqchasiga neoliberal yo_nalishga burdi.

2003-yilda Blair hokimiyatining asosi yemirila boshladi. U Labour partiyasining an'anaviy tamoyillaridan butunlay uzoqlashib, parlamentni chetga surdi va Iroq urushidagi harakatlari bilan o_z obro_siga putur yetkazdi. O_rta sinf tarafdorlari Iroqqa bostirib kirishni, transport va sog_liqni saqlash xizmatlarining yomonlashishini tanqid qildilar, ishchi sinf esa davlat xizmatlariga ko_proq investitsiya kiritish va olti yil davomida ortib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishni talab qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Britannica. Tony Blair [Электрон ресурс]. — Режим доступа: <https://www.britannica.com/biography/Tony-Blair> (Мурожаат қилинган сана: 12.09.2024).
2. Торнберг О. From Callaghan to Blair: The shift towards a neoliberal ideology in the British Labour Party: дис. ... (PhD) — Oulu: University of Oulu, Faculty of Humanities, English Philology, 2016. — 26 с.
3. Britannica. Tony Blair [Elektron resurs]. — Rejim dostupa: <https://www.britannica.com/biography/Tony-Blair> (Murojat qilingan sana: 21.11.2024).
4. Heywood A. Politics. 3rd ed. — Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2007. — P. 59. — (Palgrave Foundations Series). — ISBN 978-0-230-52497-2
6. Bullock I. The Rise and Fall of New Labour? A Social Democracy for 21st Century Britain? // Labour / Le Travail. — 2009. — № 64. — С. 173–191.
7. Morgan K. United Kingdom: A Comparative Case Study of Labour Prime Ministers Attlee, Wilson, Callaghan and Blair // Journal of Legislative Studies. — 2004. — T. 10, № 2–3. — С. 38–52.